

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MUYDINOVA AROFATOY URINOVNA**

**O‘ZBEK MILLIY UYG‘ONISH ADABIYOTIDA MUVASHSHACHILIK:  
AN‘ANA VA INDIVIDUALLIK**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Muydinova Arofatoy Urinovna**

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik: an‘ana va individuallik.....3

**Муйдинова Арофатой Уриновна**

Мувашшахизм в узбекской национальной литературе пробуждения: традиция и индивидуальность.....25

**Muydinova Arofatoy Urinovna**

Muvashshahism in Uzbek national awakening literature: tradition and individuality.....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MUYDINOVA AROFATOY URINOVNA**

**O‘ZBEK MILLIY UYG‘ONISH ADABIYOTIDA MUVASHSHAHCHILIK:  
AN‘ANA VA INDIVIDUALLIK**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2452 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Pardayev Qo'ldosh Uzaqovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Quvvatova Dilrabo Xabibovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Radjabova Burobiya Tangirovna**  
filologiya fanlari nomzodi, yetakchi ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «5» 04 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz.)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (255 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «27» 03 kuni tarqatildi.

(2023-yil «27» 03 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).



**I.I.Adizova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filol.f.d., professor

**G.A.Jo'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

**Q.B.Yo'ldoshev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti alohida adabiy-estetik hodisa hisoblanadi. Bu davr ijodkorlari an’anaviy she’riyatni ham mazmun, ham shakl jihatdan yangiladi. Davr adabiyotiga qiziqish, uning kishilik jamiyati taraqqiyotida muhim o‘ringa egaligi, rivojlanish tendensiyasining alohidaligi, tarixiy haqiqatlarga boyligi, adabiy-estetik tafakkurning yangilanishi jihatidan uni o‘rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Dunyo adabiyotida milliy uyg‘onish adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar dunyoviy ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, inson kamoloti bilan bog‘liq ideallarni kuylash orqali insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mazkur davr adabiyotini o‘rganish masalasi kun tartibiga qo‘yilib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay davr ziyolilari tomonidan yaratilgan muvashshah shaklidagi she’rlar dunyo adabiyotshunosligi kontekstida maxsus o‘rganilgan emas. Shu bois ularni tadqiq etish, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish zaruratdir.

O‘zbek adabiyotshunosligida milliy uyg‘onish davri adabiyotini har jihatdan izchil o‘rganishning keng imkoniyatlari mustaqillikning ilk yillarida vujudga keldi. Darhaqiqat, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchi beqiyos”<sup>1</sup>. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan muvashshah asarlar shoirlar adabiy-estetik olamini, ijtimoiy va adabiy hayotini, adabiy davrasi, ijodiy hamkorligini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Muvashshahlar, asosan, ishqiy (majoziy), qisman diniy-tasavvufiy va ijtimoiy mavzularda yaratilgan. Jumladan, diniy-tasavvufiy mavzudagi muvashshahlarning badiiy yetuk namunalarini yaratgan Yusuf Saryomiy, Muhyi, Haziniy, Bositxon Hariqiy kabilarning asarlarida insonning o‘zligini tanishi, pok axloq, insoniy fazilatlar targ‘ibi, shu bilan birga tarixiy sharoitdagi muhim ijtimoiy masalalar ilgari surilgan. Ayni paytda, muvashshahlarning o‘rganilishi uning adabiyotshunosligimiz tarixidagi o‘rni va ahamiyatini belgilashda ham muhim ilmiy qiymatga ega. Bularning barchasi mavzuning dolzarbligini tasdiqlovchi asoslardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Тошкент шаҳридаги Адиблар хиёбонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2020 йил 21 май, №106 (7608).

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasi, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari ijodidagi muvashshahlar yuzasidan o'zbek adabiyotshunosligida muayyan tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, M.Shayxzoda, A.Qayumov, Sh.Yusupov, Q.Pardayev, O.Oltinbek, O.Jo'raboyev, Sh.Nuriddinov singari olimlar mavzusi doirasida muvashshah shaklidagi she'rlarning ayrim xususiyatlarini yoritgan<sup>2</sup>. Adabiyotshunoslikda muvashshahga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Jumladan, adabiyotshunos T.Boboyev muvashshahga ma'naviy san'atlardan biri, ayni choqda poetik janr<sup>3</sup>, deb ta'rif beradi. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinovlarning "O'zbek klassik she'riyati janrlari" asarida ham muvashshah adabiy termin sifatida maxsus bir usul – san'at, deb ta'riflanadi. Shoir va olim Maqsud Shayxzoda esa "Furqat haqida qaydlar" maqolasida muvashshahni janr deb ataydi<sup>4</sup>. F.Salayev, G.Qurboniyozovlarning "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi"da ham muvashshah lirik janr sifatida beriladi<sup>5</sup>. "Adabiy turlar va janrlar" (tarixi va nazariyasiga oid) uch jildlik o'quv qo'llanmaning 2-jildida ham muvashshah shakl mazmunderligi va tuzilishiga ko'ra lirika janrlari qatorida berilgan<sup>6</sup>.

Ushbu tadqiqotlarda o'zbek she'riyatidagi muvashshahlarning shakl va mazmun xususiyatlari, janriy hamda shakliy belgilari xususida turlicha nazariy fikrlar bildirilgan, xolos. Bu esa o'zbek adabiyotshunosligida ushbu masalaga oydinlik kiritilishi zarur bo'lgan muammolardan ekanligini ko'rsatadi. Mazkur dissertatsiyada yuqoridagi ishlardan farqli o'laroq mavzu ilk bor monografik tarzda o'rganilmoqda.

<sup>2</sup> Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973, Қаюмов А. Шеърият жилolari. – Т.: Ўқитувчи, 1997; Пардаев Қ. Муқимий шеърияти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Т.: Мухаррир нашриёти, 2019; Юсулов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003. – 168 б; Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. –Т.: Фан, 2007; Олтинбек О. Каримбек Камий – миллий уйғониш шоири. –Т.: Мухаррир, 2018. – 124 б; Нуриддинов Ш. Мулла Қўшоқ Мискин ҳаёти ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2011.

<sup>3</sup> Қаранг: Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 404.

<sup>4</sup> Қаранг: Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 91.

<sup>5</sup> Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изохли сўзлиги. –Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 140.

<sup>6</sup> Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид) Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика (У.Тўйчиев). – Т.: Фан, 1992.– Б. 189.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari ijodidagi muvashshah she'rlar tadqiqi orqali ijodkorlar adabiy-estetik olami va badiiy mahoratini aniqlash, adabiy muhitlardagi muvashshahchilikning xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek adabiyotida muvashshah she'riy asarlar tarixiy ildizlarini tekshirish, o'zbek she'riyatida muvashshahchilik an'anasini masalalarini ochib berish;

milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida muvashshahchilik an'anasining shakllanish va takomil bosqichlarini aniqlash;

Toshkent va boshqa adabiy muhit vakillari ijodidagi muvashshah she'rlarning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berish va adabiy muhitlardagi muvashshahchilikka oid bahs-munozaralarga oydinlik kiritish;

muvashshah she'rlarning poetik mazmun ifodasini ochib berish, janrlar qamrovi masalasini ilmiy tahlil etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbek milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodidagi muvashshah shaklidagi she'rlar olindi.

**Tadqiqotning predmetini** muvashshahlarning tarixiy ildizlari tahlili, milliy uyg'onish davri adabiyotida muvashshahchilik an'anasining shakllanish va takomil bosqichlarining ilmiy asoslanishi, muvashshah she'rlarning mavzu ko'lami va janr xususiyatlarini o'rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, biografik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Muvashshahchilikning genetik ildizlari XI-XII asrlarga tegishli ekanligi, o'sha davrda Ispaniyada arab she'riyatining muvashshah va zajal shakllari keng rivojlangani aniqlangan va ushbu she'r shakllari musammat janrining paydo bo'lishi va poetik takomiliga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatgani isbotlanib, muvashshahning qadimiy she'riy shakllardan ekanligi aniqlangan;

milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti ijodkorlari yaratgan muvashshah she'rlar tekshirilishi natijasida davr shoirlarining yaqin do'stlari kimlar bo'lgani, ijtimoiy va adabiy hayoti, shoirlar adabiy davrasi, ijodiy hamkorligi kabi ko'plab masalalar aniqlanib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida muvashshahchilik takomillashgani, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Feruz, Haziniy, Muhsiniy, Muhyi, Qoriy, Kamiy, Xislat kabi shoirlar bu an'anada yetakchilik qilgani dalillangan;

muvashshahning tavshih lafziy san'ati asosida yaratilgan she'riy shakl ekanligi, bir janr ichida ko'pincha boshqa janr va shakl unsurlari mavjud bo'lishini hisobga olgan holda muvashshahlarni muvashshah-qit'a, muvashshah-ruboiy, muvashshah-muammo, muvashshah-g'azal, muvashshah-muxammas, muvashshah-murabba', muvashshah-musamman, muvashshah-mustazod kabi guruhlashtirish mumkinligi isbotlangan;

muvasshah-gʻazallarning baytlari ismdagi harflar miqdori bilan belgilanishi, muvasshahlardagi “mullo”, “abdu”, “mir”, “hoji” singari ismlar oldiga qoʻshiladigan; “xon”, “jon”, “qori”, “mahzum”, “bek”, “boy” kabi ism oxiriga qoʻshiladigan soʻz va qoʻshimchalar hisobiga baytlar miqdori oshib borishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

muvasshahlar, asosan, gʻazal janrida yaratilganiga qaramay, har bir ijodkorning oʻziga xos yondashgani aniqlanib, ikki shaxs nomining bir muvasshah-gʻazalning juft va toq misralarida ifodalanishi aniqlangan.

muvasshahlar, asosan, gʻazal, qisman musammatlarda yaratilgani, ular asosan aruz vaznining hazaj, ramal, sareʼ, rajaz bahrlarida ekanligi, Miskinning Kamiy gʻazaliga yozgan tazmini, Muqimiyning Alisher Navoiy gʻazaliga bogʻlagan nazirasi misolida muvasshahchilikda tazmin va naziralar ham uchrashi dalillangan;

milliy uygʻonish davri Qoʻqon adabiy muhiti shoirlari ijodida muvasshahchilik anʼanasining shakllanish va takomil bosqichlari aniqlangan;

Toshkent va boshqa adabiy muhit vakillari ijodidagi muvasshah sheʼrlarning oʻziga xos jihatlari aniqlanib, muvasshah sheʼrlarning poetik xususiyatlari, janrlar qamrovi masalasi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllanilgan yondashuv usullari va nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida oʻrganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti boʻyicha tadqiqotlar uchun nazariy material bera olishi, jadidlar adabiy merosini poetik tafakkurning yangilanishi, badiiy mahorat nuqtai nazaridan, asarlarining milliy istiqlol gʻoyalari bilan bogʻliqlikda oʻrganilishi, yangi adabiy materiallarning ilk bor ilmiy tahlil doirasiga tortilishi, tadqiqot natijalari, undagi tahlil usullari, janr qoʻllashdagi anʼana va yangilik munosabati borasidagi kuzatishlar milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti tarixi va nazariyasini yanada boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy oʻquv yurtlarining “Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili)” taʼlim yoʻnalishida “Oʻzbek adabiyoti tarixi”, “XX asr oʻzbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik (oʻzbek adabiyoti)” magistratura mutaxassisligida “Jadid adabiyoti tarixi” fanlaridan maʼruzalar oʻqishda va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishda, darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar yaratishda manba boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oʻzbek milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotida muvasshahchilik anʼanasi va uning har bir shoir ijodidagi individual xususiyatlari tadqiqi boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

milliy uygʻonish davri adabiyoti ijodkorlari yaratgan muvasshah sheʼrlar tadqiqi natijasida davr shoirlarining yaqin doʻstlari kimlar boʻlgani, ijtimoiy va



adabiy hayoti, shoirlar adabiy davrasi, ijodiy hamkorligiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish" mavzusidagi fundamental loyihaning Qo'qon, Xorazm adabiy muhitiga bag'ishlangan jildida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti - 2023-yil 21-yanvardagi 04/1-131-son ma'lumotnomasi). Natijada, muvashshahning tavshih lafziy san'ati asosida yaratilgan she'riy shakl ekanligi, bir janr ichida ko'pincha boshqa janr va shakllar unsurlari mavjud bo'lishini hisobga olgan holda muvashshahlarni muvashshah-g'azal, muvashshah-ruboiy, muvashshah-qit'a, muvashshah-muxammas, muvashshah-murabba' kabi guruhlashtirishga oid tahliliy materiallar bilan boyishiga asos bo'lgan;

milliy uyg'onish davri adabiyotidagi turkiy tilda yaratilgan muvashshah she'rlarning badiiy xususiyatlari, shoirlarning lirikadagi mahorati, har bir ijodkorning o'ziga xos yondashuvi, muvashshahning qadimiy she'riy shakllardan ekanligi, XI-XII asrlarda Ispaniyada arab she'riyatining muvashshah va zajal janrlari keng rivojlangani, musammatlarning vujudga kelishida muvashshah va zajal kabi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli ekanligiga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2022 yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2023-yil 21-yanvardagi 04/1-130-son ma'lumotnomasi). Natijada, muvashshah she'riy asarlarning tarixiy ildizlari, o'zbek she'riyatida muvashshahchilik an'anasi, adabiy muhitlardagi muvashshah asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, poetik mazmuni singari masalalar tahliliga oid materiallar bilan boyishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, predmeti, fan va texnologiyalar rivojida ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tuzilishi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi "**Muvashshah she'riy asarlar genezisi va taraqqiyot bosqichlari**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "*Muvashshahning tarixiy ildizlari*" haqidadir. Muvashshah arabcha "vashshah" – "kamar", "belbog'ich" so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi "bo'yni bog'langan" demakdir, adabiy istiloh sifatida "bezamoq", "ziynatlamog'" ma'nolarini ifodalaydi<sup>7</sup>. Muvashshahning har bir misra, bayt yoxud bandining boshlanish harflaridan (ba'zan esa taqte'lar chegarasidagi) biror narsa yoki kishining nomi kelib chiqadi. Muvashshahlar mumtoz she'riyatda qit'a, ruboiy, g'azal, muammo, musammat kabi turli janr shakllarida yaratilgan.

Muvashshah haqida XI asrda yaratilgan adabiy manbalarda ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, fors adabiyotida muvashshahga oid ilk ma'lumotlar Umar Roduyoniyning (XI asr) "Tarjumonul-balog'a" asarida keltirilgan<sup>8</sup>. Turkiy adabiyotning ulkan shoiri va allomasi Shayx Ahmad Taroziyning (XV asr) turkiy tilda bitilgan "Fununu-l-balog'a" (1436-1437) asarida esa muvashshah maxsus san'at sifatida tilga olinadi<sup>9</sup>. Muvashshahga oid nisbatan to'liq ma'lumot XV asrda yashab ijod etgan shoir va olim Atoulloh Husayniyning forsiyda bitilgan "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarida berilgan. Unga ko'ra tavshih lafziy san'ati asosida yaratilgan she'r muvashshah deyiladi<sup>10</sup>. O'zbek adabiyotshunosligida ham A.Hojiahmedov va D.Quronovlarning muvashshah haqidagi ma'lumotlari Atoulloh Husayniy ma'lumotlari bilan o'xshash bo'lsa-da, negadir olimlar tavshihni *ma'naviy* san'at deb hisoblaydilar<sup>11</sup>. Ma'lumki, mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy san'atlarni nutqning ko'proq qaysi jihatiga bezak berishi jihatidan lafziy, ma'naviy hamda lafzi-yu ma'naviy san'atlar ko'rinishida tasniflash an'anasi shakllangan. Tavshih san'ati asosida yaratilgan she'rda ham ma'no jihatini unutmagan holda ko'proq shakl tomoniga bezak beriladi. Shunga ko'ra "Tavshih lug'atta vishoh, ya'ni bo'yunbog'ni bironing bo'ynig'a ilmaktur. She'rg'a harf yoki so'zlarni kiritmak anga o'xshag'ani uchun bu ma'noda anga tavshih deb nom qo'yupturlar"<sup>12</sup>, – deb ta'kidlab, tavshihni lafziy san'atlar qatoriga qo'shgan Atoulloh Husayniyning yondashuvi to'g'ri, nazarimizda.

Adabiyotshunoslikda muvashshahga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Jumladan, adabiyotshunos T.Boboyev muvashshahga ma'naviy san'atlardan biri, ayni choqda poetik janr<sup>13</sup>, deb ta'rif beradi. Olim mumtoz poeziyaning muayyan bir janrida yaratilgan asar hamisha

<sup>7</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1989. – С.890.

<sup>8</sup> Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Биринчи китоб. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 247.

<sup>9</sup> Қаранг: Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балог'а. (Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов). – Т.: Ҳазина. – Б.1996. – Б.125.

<sup>10</sup> Қаранг: Атоуллох Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Б.1981. – Б. 85.

<sup>11</sup> Қаранг: Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малохати. – Т.: Шарқ. 1999.– Б. 62.; Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 298.

<sup>12</sup> Қаранг: Атоуллох Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.– Б.85.

<sup>13</sup> Қаранг: Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.– Б.404.

ham sof bir janr doirasida chegaralanib qolavermasligi, bir janr ichida ko‘pincha boshqa janr va shakllarning unsurlari mavjud bo‘lishini ham ta’kidlab, shunday yozadi: “g‘azal, qit‘a, ruboiy, tuyuq, mustazod, muvashshah, chiston kabi she’rlarning bir qancha shakl va usullarda yaratilishi shu hodisa (poetik janrlarning bir-biriga payvandlashib ketishi)ning samarasidir. Bu xil asarlarning janrlarini belgilashda ularda qaysi janrga xos alomatlar ustunlik qilishi hisobga olinadi yoxud ularda mujassamlashgan turli shakllarga xos sinkretik xususiyatlardan kelib chiqib qo‘shaloq nom (g‘azal-muvashshah, ruboiy-chiston) beriladi”<sup>14</sup>.

O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinovlarning “O‘zbek klassik she’riyati janrlari” kitobida ham muvashshah adabiy termin sifatida maxsus bir usul – san’at, deb ta’riflanadi va o‘zbek klassik g‘azaliyotidagi g‘azal turlaridan biri – *g‘azali muvashshah* haqida ma’lumot beriladi<sup>15</sup>. Muvashshahga badiiy san’at sifatida qarash Sh.Sulaymonov, Q.To‘xsanovlarning “Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug‘ati”<sup>16</sup>da ham uchraydi.

Shoir va olim Maqsud Shayxzoda esa “Furqat haqida qaydlar” maqolasida muvashshahni janr deb ataydi<sup>17</sup>. F.Salayev, G.Qurboniyozovlarning “Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi”da ham muvashshah lirik janr sifatida beriladi<sup>18</sup>. “Adabiy turlar va janrlar”<sup>19</sup>(tarixi va nazariyasiga oid) uch jildlik o‘quv qo‘llanmaning 2-jildida hamda E.Xudoyberdiyevning “Adabiyotshunoslikka kirish”<sup>20</sup> darsligida ham muvashshah shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko‘ra lirika janrlari qatorida beriladi.

Muvashshah janrmi yoki san’at, degan haqli savol tug‘iladi.

Muvashshah tavshih san’ati asosida yaratiladigan she’r ekan, uni badiiy san’atlar qatoriga qo‘shish to‘g‘ri emas. San’atdan san’at hosil qilinmaydi. O‘ziga xos janr shakliiy belgilariga ega emasligi, ya’ni boshqa janr shakllarida yaratilishi hamda janr talablariga to‘la javob bermasligi jihatidan janr ham bo‘la olmaydi. Shunga ko‘ra muvashshahni tavshih lafziy san’ati asosida yaratiladigan she’riy shakl deyish mumkin.

O‘zbek she’riyatidagi muvashshahlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagicha tasnif qilish mumkin:

**1.Mavzusiga ko‘ra:** ishqiy (majoziy); diniy-tasavvufiy; ijtimoiy.

**2.Turli janr shakllarida yaratilganiga ko‘ra:** muvashshah-qit‘a, muvashshah-ruboiy, muvashshah-muammo, muvashshah-g‘azal, muvashshah-muxammas, muvashshah-murabba’, muvashshah-musamman, muvashshah-mustazod kabi.

<sup>14</sup> Шу асар. – Б.502.

<sup>15</sup>Қаранг: Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Т.: Ўқитувчи, 1979.– Б.76.

<sup>16</sup> Қаранг: Сулаймонов Ш., Тўхсанов Қ. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Бухоро, 2009. – Б.71.

<sup>17</sup> Қаранг: Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973.– Б.91.

<sup>18</sup> Қаранг: Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги асп авлоди, 2010. – Б.140.

<sup>19</sup> Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид) Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика (У.Тўйчиев). – Т.: Фан нашриёти, 1992. – Б.189.

<sup>20</sup> Qarang: Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Iqtisod – Moliya, 2007. – Б. 236.

**3. Shaxs yoki narsa nomi berkitilganligiga ko‘ra:** zamondosh shaxs; vafot etgan shaxs; ayol nomi; erkak nomi; narsa nomi; alifbo harflari.

**4. Muvashshah-she‘r matnining nomi yashirilgan shaxsga aloqadorligiga ko‘ra:** nomi berkitilgan shaxsga bag‘ishlangan muvashshah; nomi berkitilgan shaxsga aloqasi bo‘lmagan muvashshah; shoirning o‘z taxallusi yashirilgan muvashshahlar.

**5. Muayyan ishoralar mavjudligiga ko‘ra:** muayyan ishoralar mavjud; ishoralar mavjud bo‘lmagan.

**6. Vazniga ko‘ra:**

1) aruz vaznida yozilgan muvashshahlar: a) baytdagi toq misralardan; b) juft misralar yoki qofiyali misralardan; s) baytning har ikkala misrasi qo‘shaloq tarzda; d) musammatlarda har bir bandning birinchi misrasi bosh harflaridan ism yoki nom chiqishi;

2) barmoq vaznida yozilgan muvashshahlar: har bir misraning birinchi harflaridan ism yoki nom hosil qilinadigan.

Muvashshahning kelib chiqishi haqida ham turli fikrlar mavjud. Rus sharqshunosi I.Y.Krachkovskiyning “Ispaniyada arab she‘riyati” asarida qayd etilishicha, arab-ispan adabiyoti tarixchisi, Portugaliyaning Shantarena shahridan bo‘lgan Ibn Bassam (vaf. 1147) bergan ma‘lumotlarga ko‘ra muvashshah birinchi bo‘lib X asr boshlarida Kordova (Ispaniya)da yashagan shoir Muqaddam ibn Muofa al-Kabriy tomonidan yaratilgan<sup>21</sup>. Boshqa manbalarda bunday she‘rlar arablarda musiqaga solib kuylangani<sup>22</sup> yoziladi.

Muvashshah G‘arb she‘riyatida “kraestishie” (chetki satr) yoki “akrostix” (yun.akros – chekkasi, stichos – misra) deb nomlangan she‘riy shaklga o‘xshaydi. Akrostixda ham yuqoridan pastga qarab o‘qilgan she‘r misralarining bosh harfidan so‘z yoki jumla hosil qilinadi. Shu tarzda ko‘pincha muallifning yoki she‘r bag‘ishlangan shaxsning nomi yashirilgan.

Professor Fozila Sulaymonovanning “Sharq va G‘arb”<sup>23</sup> hamda professor N.Komilovning “Tafakkur karvonlari”<sup>24</sup> asarlarida ham muvashshahning Ispaniyada arablar hukmronligi davrida yaratilgani, Muvashshah yaratgan shoirlarning mashhuri Abu Bakr Muhammad ibn Zuhr (1110-1111 yillar vafoti)<sup>25</sup> ekanligi ta’kidlanadi.

Xullas, musammatlarning vujudga kelishida muvashshah va zajal kabi arab she‘riyatidagi bandli she‘r shakllarining ta’siri kuchli bo‘lganligi muvashshahning qadimiy janrlardan ekanligini ko‘rsatadi<sup>26</sup>.

Bobning ikkinchi faslida “*O‘zbek adabiyotida muvashshahchilik an‘anasi*” xususida mulohaza yuritilgan. Hasanxoja Nisoriy (XVI asr) “Muzakkiri ahhob” tazkirasida mavlono Shavqiyning forsiyda bitilgan bitta muvashshah mustazodini keltirib, tahlil qiladi: “bunday qiyin, san’atkorona aytilgan she‘rlar kam yoziladi va

<sup>21</sup> Qarang: [Крачковский И.Ю. Арабская поэзия в Испании \(том 2\): Free Download, Borrow, and Streaming: Internet Archive.](#)

<sup>22</sup> Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика(У.Тўйчиев). – Т.: Фан, 1992.– Б.189.

<sup>23</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997.– Б.271.

<sup>24</sup> Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1999.– Б.64.

<sup>25</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997.– Б.271.

<sup>26</sup> Qarang: Юсупова Д. Аруз вази қоидалари ва мумтоз поэтика асослари. Ўқув қўлланма.– Тошкент, 2018.

yuksak baholanadi”, – deydi va ijodkorlar shunday she’rlar yarata olsagina haqiqiy shoir, deb baholaydi<sup>27</sup>.

Ma’lumki, XIX asrda Qo‘qon, Xorazm va Buxoro adabiy muhitlari taraqqiy etdi. Ijodkorlar rang-barang janrlarda yetuk asarlar yaratib, adabiyot tarixidan munosib o‘rin egalladilar. Bu davrni o‘zbek adabiyotida muvashshahchilikning an’anaga aylangan davri, desak adashmaymiz. Ayniqsa, XIX asrning oxiri – XX asr boshlariga kelib muvashshahchilik an’anasi keng yoyilib, “avj olib ketdi<sup>28</sup>”. Adabiyot tarixidan ma’lumki, mazkur davrgacha ham ijodkorlar tomonidan muvashshah kabi sirli she’rlarni yaratish an’anasi mavjud bo‘lgan. Xususan, Sharq poetikasida *hurufi hijo* – bo‘g‘in harflar san’ati deb nomlanadigan she’riy san’atni qo‘llash bilan alifboning muvashshah qilinganini Boborahim Mashrab(XVII–XVIII asrlar) va Mahjur(Nodir-Uzlat XVIII asr) ijodlarida kuzatish mumkin. Bu san’atga ko‘ra alifbodagi har bir harf misra boshida bir hijo sifatida ishlatiladi. Keyin shu harf bilan boshlanuvchi so‘z keladi. Masalan, Mashrabning bir g‘azalida 29 ta harf misralar boshida birinchi hijo (bo‘g‘in) bo‘lib kelgan. Mahjur (Nodir-Uzlat)ning 29 banddan (174 misra) iborat musaddasida ham shu san’at qo‘llanib, alifbo muvashshah qilingan<sup>29</sup>. Bundan ma’lum bo‘ladiki, nafaqat *tavshih* san’ati, balki *hurufi hijo* san’atini qo‘llab ham muvashshah yaratish mumkin ekan.

XIX asr muvashshahchiligi rivojida Uvaysiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bu davrda muvashshahlar, asosan, g‘azal janrida, qisman musammatlarda yaratildi. Muvashshah-g‘azallarda, ko‘pincha, kishi ismining ikki xil usul bilan hosil bo‘lishi ma’lum: 1) g‘azal baytlaridagi toq misralarning birinchi harflari asosida; 2) g‘azaldagi qofiyadosh misralarning birinchi harflari orqali. Mazkur davrda muvashshahlar, asosan, birinchi usulda yaratilgan, lekin shoira Uvaysiy ijodida boshqa usullar bilan ham hosil qilingan muvashshahlar uchraydi. Shoira Devoni<sup>30</sup> hamda “Mazmun ma’dani”<sup>31</sup> she’rlar to‘plamidan joy olgan muvashshah-g‘azallaridan Sohib, Momo, Farsoxon, Maxzumjon, Qunduz kabi o‘nlab nomlarni o‘qiymiz. Shoira muvashshahlari orasida erkaklar nomiga bitilganlari ham mavjud. Maxzumjon, Abdusamad, Mirzo Rahimxon, Hazratxon, Sohib, Farsoxon singari ismlar bilan ziynatlangan muvashshahlari shular jumlasidandir.

Shoiraning Sohib ismi bilan ziynatlangan quyidagi g‘azali ijtimoiy-ma’rifiy mavzudagi muvashshahlardan hisoblanib, qofiyali misralarning bosh harflaridan hosil qilingan:

Sen, ey xalq, qahqaha birla kulganing menga kulfat  
Yorab, ko‘rsang ichimni, tab’i mavzunimda ming illat.

Chiqar bir dudi ohim subh nopaydo bo‘lur ul dam  
Ham ul ko‘z yoshima g‘arq o‘lmag‘ingga bormudur ruxsat.

<sup>27</sup> Қаранг: Бекчанов И. Ҳасанхожа Нисорийнинг “Музаккири аҳбоб” тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти. Фил.фан. ном. дисс.– Т., 1993.– Б. 81.

<sup>28</sup> Қаранг: Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б.91.

<sup>29</sup> Қаранг. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: О‘zbekiston, 2014. – Б. 295-296.

<sup>30</sup> Увайсий. Девон.– Т.: Ўзбекистон ФА, 1959. – Б.288.

<sup>31</sup> Қаранг. Увайсий. Мазмун маъдани. Шеърлар. (Тузувчилар: А.Турдиалиев, У.Неъматов)– Т.: Akademnashr, 2010. –Б.224.

Ayo, ey olimon, sen vorisi faxri jahondirsen  
Yibordim muhtamil so‘z bulkun ustodingni qil hurmat.

Tilaydurmen sevingdin birsi jomid, birsidir muztar  
Bo‘lib har qofiya misra boshig‘a harf chun davlat.

Uvaysiy berkitibdur matlabin ismin hurufini  
Topib bu ruq‘ani har kim yuborsa angadur rahmat.

Muvashshahchilikning XX asr birinchi choragiga kelib bahs-munozaralarga sabab bo‘lgani ma‘lum. Bunga “Al-Isloh” jurnalida, keyin esa boshqa vaqtli nashrlardagi munozaralar dalildir. Mazkur munozaralar adabiyotshunos Q.Pardayevning “Al-Isloh” va XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti” monografiyasida batafsil yoritilgan. Munozara dastlab “Al-Isloh” jurnalining 1916- yilgi 11-sonida “O‘ratepali Mulla Bahridin tarafindin savollar” tashlanishi bilan boshlanadi<sup>32</sup>. Unda jamiyatda ro‘y berayotgan katta ijtimoiy hodisalar zamon shoirlarining ishqiy va hajviy she‘rlariga bog‘liq talqin etiladi. Mazkur munozaralar bois ishqiy mavzudagi she‘rlarga, ayniqsa, muvashshahlarga nisbatan nosamimiy munosabat paydo bo‘ldiki, buning ta‘siri o‘laroq adabiy jarayonda bunday she‘rlar tanqid qilindi, biroz e‘tibordan chetda bo‘ldi. Jadid shoirlari asosan, ijtimoiy-ma‘rifiy mavzuda she‘rlar yaratdilar, davr shuni taqqoza qilardi. Xullas, XX asr birinchi choragiga kelib muvashshahchilikning pasayishini o‘zbek she‘riyatidagi shakliy va mazmuniy yangilanishlar, adabiyotga oid munozaralar, shuning barobarida jadid adabiyotining maydonga chiqishi bilan bog‘lash mumkin. Shunday bo‘lsa-da, muvashshah yaratish an‘anasi to‘xtab qolmadi, keyingi avlod shoirlari ijodida davom etdi. Maqsud Shayxzoda, Uyg‘un, Chustiy, Yolqin, Yong‘in Mirzo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi va boshqa shoirlar yaratgan muvashshahlar an‘anaviy muvashshahlarni ham shakl, ham mazmun jihatdan yangiladi. Ya‘ni muvashshahlarning nafaqat aruz, balki barmoq vaznida ham yaratilishi, she‘rdagi shaxs nomi kirill alifbosida berilishi hamda mavzu jihatidan ham kengayishi – bularning barchasi zamonaviy muvashshahchilikka xos xususiyatlardir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Adabiy muhitlarda muvashshahchilik an‘anasi**” deb nomlanib, ikki fasldan iborat. Birinchi fasl “*Qo‘qon adabiy muhitidagi muvashshahlarning o‘ziga xos xususiyatlari*” haqidadir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik o‘ziga xos adabiy taomilga aylangani ma‘lum. Bu davr adabiyotiga xos yana bir o‘ziga xoslik XV asrda Hirot adabiy muhiti shoirlari orasida muammonavislik avj olgani kabi muvashshahchilikning ommalashganidir. Bu an‘ana o‘z navbatida Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida ham o‘z ifodasini topdi.

Muvashshahlar, asosan, ishqiy mavzuda g‘azal janrida yaratilgan bo‘lishiga qaramay har bir ijodkorning o‘ziga xos yondashganini kuzatish mumkin. Jumladan, mazkur adabiy muhitning peshqadam vakillaridan Ziyovuddinxon Kattaxoja o‘g‘li Haziniy davr an‘anasiga ko‘ra muvashshahchilikda ham barakali

<sup>32</sup> Пардаев К. “Ал-Ислох” ва XX аср бошлари ўзбек адабиёти. –Т.: Маҳалла ва оила, 2021. – Б.349.

ijod qilgan. She'rlarining 25 tasida muvashshah shakli aks etgan bo'lib, shundan to'rttasi murabba', bittasi muxammas, qolgani esa g'azal janrida yaratilgan<sup>33</sup>.

Muvashshahlar, asosan, erkaklar nomiga bog'langani ma'lum. Ayollar nomiga yozilganlari juda kam shoirlar ijodida uchraydi. Haziniy ijodida ham Qo'ldoshxon, Mahmudjon, Ibrohimxon, Mo'minxon, In'omjon, Jo'rabek kabi do'stlariga bag'ishlangan muvashshahlar qatorida To'faxon, Ashuroyxon, Oyshaxon, Nazirxon, To'tixon-To'ti kabi bir necha ayollar nomiga bog'lagan muvashshahlarni ham uchratish mumkin. Shuningdek, muvashshahlarning, asosan, ishq ilohiy mavzuda ekanligi ham shoir muvashshahlarining o'ziga xosliklaridan hisoblanadi.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodining ham katta qismini muvashshah-g'azallar tashkil etadi. Shoir ijodiy merosida 75 ta she'r muvashshah qilingan. Muqimiy ijodida ham bir kishi ismiga bir qancha muvashshahlar bitilgan. Jumladan, Rashidxon ismiga 4 ta, Jamolxon nomiga 2 ta, Solihxon nomiga 2 ta, Nizomxon nomiga 4 ta, Fo'lodxon – Toshfo'lodxon nomiga 2 ta muvashshah-g'azali mavjud. Shoir muvashshahlarida ismi keltirilgan shaxslar Muqimiy hayotida alohida o'rin tutganini ta'kidlash mumkin. Bu kishilar ismi Furqat, Zavqiy, Muhyi va Haziniy muvashshah-g'azallarida ham ko'p uchraydi. Shuningdek, shoir muvashshahlari muxammas shakllarida ham yaratilgani hamda naziralarini muvashshah qilgani uning o'ziga xosligini ta'minlagan.

Ubaydulloh Zavqiy ijodida ham 20 ga yaqin muvashshah-g'azal mavjud. Zavqiy ham davr an'anasiga ko'ra, asosan, lirik she'rlarini muvashshah shaklida yaratgan. Shoirning "Ajab zamona" she'rlar to'plami<sup>34</sup> dan 17 ta muvashshah-g'azal joy olgan. Ularda Salimxon, Azimxon, Akbarjon, To'xtanazarxon, Abdullohjon, Mulla Ahmadxon, Mirahmadxon, Solihjon, Qorixon, Mulla Sarimsoqxon, Mulla Abdullohjon, Mulla Asg'arjon, Odilxon, Karimjon, Nazirbek kabi shaxslar nomlarini o'qiyimiz. Shunisi e'tiborliki, muvashshahlar yaratishda shoirning o'ziga xosligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zavqiy muvashshahlariga xos yangilik shundaki, uning muvashshahlaridan biri ikki shaxs nomiga bag'ishlangan: birinchi(toq) misralar boshidagi harflardan Kabirjon, ikkinchi(juft) misra boshidagi harflardan Karimjon nomlarini o'qiyimiz. G'azal maqta'sida shoir bunga ishora ham qiladi. She'r matnidagi:

**B**og'i malohat ichra iki navnihol mard,

Rahm aylagil ishq ahlig'a, topay desang kamol", – misralaridan ham she'r ikki kishiga bag'ishlanganini payqash mumkin.

G'azal matnini to'lig'icha keltirsak:

**G**ul orazingni aksi ila nazzora boisi,

**K**o'rguz chamangaki gahi bir otashin jamol.

**B**og'i malohat ichra iki navnihol mard,

**R**ahm aylagil ishq ahlig'a, topay desang kamol.

<sup>33</sup> Қаранг: Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Т.:Фан, 2007. – Б.86.

<sup>34</sup> Завқий. Ажаб замона. Шеърлар. (Нашрга тайёрловчилар Мадаминов А, Турдалиев А). – Т.: Шарқ, 2003. – Б.176.

Rozi dilimni sizga demay, kimga aytayin,  
Mehnat yukining ostida qad bo‘ldi misli “dol”.

Jono, firoqing hasratini ko‘p chekib edim,  
Jomi jahonda bo‘ldi nasib sharbati visol.

Izhoru ishq har havas ahli dilida ko‘p,  
Iqrur qildim ushbu dunyoda ko‘p mohu sol.

Nozofarin dahr bog‘ida iki mahbub nomini,  
Nazmini Zavqiyning har iki misra’ boshidin ol.

Shoirning Mirahmadxon nomi yashirilgan muvashshah-g‘azalida ham o‘ziga xoslik kuzatiladi, ya’ni shoir maqta’da g‘azalni Karimjon nomidan bayon qilganini ta’kidlaydi:

Nazm ila qildi Karimjon arzini Zavqiy bayon,  
Rahm aylang holig‘a, ma’yusu nochor o‘lmasun.

Zavqiyning muvashshah yaratishdagi mahoratini ko‘rsatuvchi yana bir yangilik muvashshah bog‘langan shaxs nomining g‘azal maqta’ida keltirilganidir. Buni Azimxonga bag‘ishlangan muvashshah-g‘azalning maqta’ida Azimxon nomining keltirilganida ko‘rish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Zavqiy ijodida adabiy hamkorlik natijasida yaratilgan muvashshahlar ham mavjud. Qorixonga bag‘ishlangan “Qulingman sharbati vaslingdin et in‘om, aylansun” misralari bilan boshlanadigan “Aylansun” radifli muvashshah-g‘azalining ikkinchi baytida ham Qorixon nomi aynan keltiriladi hamda g‘azal maqta’ida muvashshahni Zavqiy bir o‘zi emas, balki Muqimiy va Furqatlar bilan birgalikda yozganliklarini e’tirof etadi:

Na tanho ayladi Zavqiy muvashshah, yor, ismingni,  
Muqimu Furqatiy aylab emish e’lom, aylansun.

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning ham qirqdan ortiq g‘azali muvashshah bo‘lib, ular adabiyotshunoslar M.Shayxzoda, A.Qayumov, Sh.Yusupov, S.Karimovalar tomonidan o‘rganilgan. Furqat ijodida ham bir shaxs nomiga bir necha muvashshah-g‘azal bitilganini kuzatish mumkin. Masalan, Toshkandxon nomiga 2 ta, Yusufjon nomiga 2 ta, Qalandarxon nomiga 4 ta, Mulla Abduqodirjon nomiga 2 ta muvashshah bog‘langan. Bundan tashqari shoirning 1 ta g‘azal va 1 ta muxammasi A‘zamxon nomiga muvashshah qilingan. Bu muvashshah she’rlar shunchaki yozilmagan, Furqatning ular bilan do‘stona munosabati, adabiy aloqalari bo‘lganini ta’kidlash kerak. Bu esa Furqat ijodini o‘rganishda yangi ma’lumotlar sifatida hujjat sifatida qimmatlidir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o‘z davri adabiy an‘analarini davom ettirib, ko‘plab muvashshahlar yaratgan. Shoirning 1988-yilda nashr etilgan devonida jami 18 ta muvashshahi o‘rin olgan. Ulardan 16 tasi g‘azal, 1 tasi murabba’, 1 tasi muxammas janrlarida yaratilgan. Bu esa Hamza biografiyasida muvashshah qilingan shaxslar uchrashi, shoir ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lganligi haqida xulosaga kelish imkonini beradi.



O‘z zamondoshlari orasida “toji ush-shuaro”, “shohi shoiron” deya yuksak e‘zozlangan shoir Muhiddin Muhammad Rizo oxund o‘g‘li Muhyi ishqij majoziyini aks ettirgan o‘zbekcha va forscha g‘azallarining katta bir qismini muvashshah shaklida yaratgan. Professor Sh.Yusupov ta’kidlashicha, Muhyining 1911-yilda Toshkentda chop etilgan forsiy va turkiy devonidan Sultonmurodxon, Yusufxon, Qorixon, Mahmudxon, Mirzo Hamdam, Sherqo‘zixon, Ortiqxon, Shohyunusxon, Olimjon, Mirfaëzxon, Soatxon kabi zamondoshlari nomiga bitilgan muvashshahlari ham joy olgan. Shoirning muvashshah-g‘azallari soni qirqdan oshadi<sup>35</sup>.

Qo‘qon adabiy muhitida bir shaxs nomiga bir necha shoirlar tomonidan muvashshahlar yozilgani ma’lum. Masalan, Jamolxon, Normuhammad, Rashidxon nomlariga Furqat ham, Muqimiy ham muvashshah-g‘azal yozganliklaridan ko‘rinadiki, shoirlarning bu shaxslar bilan adabiy aloqalari, hurmati baland bo‘lgan. Bu haqda dissertatsiyada batafsil ma’lumotlar berilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*Toshkent va boshqa adabiy muhit vakillari ijodida muvashshahlar*” deb nomlangan. Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi Toshkent adabiy muhitining shakllanish davri bo‘ldi. Bu davrda Miskin, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy, Kamiy, Almaiy, Tavallo, Avloniy singari turli darajadagi ko‘plab ijodkorlar yetishib chiqdi. Toshkent adabiy muhitining zabardast shoiri Karimbek Kamiy muvashshahchilikda barakali ijod qildi. Uning “Dilni obod aylangiz” to‘plami<sup>36</sup>ga kirgan she‘rlaridan 56 tasi muvashshah qilingan, ulardan 54 tasi g‘azal, 2 tasi muxammas janrida. Jumladan, shoirning A‘zamxon nomiga 2 ta, Qosimxon nomiga 3 ta, Toshkandxon nomiga 2 ta, Mirzoxon nomiga 2 ta, Sidiqxon nomiga 2 ta muvashshah yozganidan bu shaxslar bilan do‘stona va adabiy aloqada bo‘lganini payqash mumkin. Kamiyning muvashshah-g‘azallari o‘z vaqtida anchagina ma’lum va mashhur bo‘lganligini ba’zi shoirlarning ularga yozgan taxmislaridan ayon seziladi. Xususan, uning Xoshimxon nomiga bag‘ishlangan “Qo‘ymading hayron etmayin” muvashshah-g‘azaliga Muqimiy taxmis bog‘lagan.

Sidqiy Xondayliqiy ijodida ham muvashshahlar talaygina. Jumladan, shoirning 1998-yil nashr etilgan “Tanlangan asarlar”idan 14 ta muvashshah-g‘azali o‘rin olgan. 8 ta muvashshah-g‘azali esa nomi eng ko‘p uchraydigan G‘ulomxonga bag‘ishlangan. Bundan tashqari shoirning Omonjon, Obidjon, Sobirxon kabi yaqinlari nomlariga atab yozgan muvashshahlari ham mavjud. “Odatda muvashshah faqat tirik do‘stning nomiga bog‘lanadi”<sup>37</sup>, lekin Sidqiy Xondayliqiy ijodida o‘g‘li Omonjon vafotiga marsiya tariqasida yozgan muvashshahi muvashshahchilikda o‘ziha xosligini ko‘rsatadi.

Olim va shoir Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy Hariqiy ijodining salmoqli qismini muvashshahlar tashkil etadi. Shoir devonida 34 ta muvashshah-g‘azal mavjud bo‘lib, e‘tiborlisi, ularning aksariyati ishqij ilohiy mavzuda. Shuningdek, bir shaxs nomiga bir necha muvashshah bitilgani kuzatiladi. Jumladan, Mullo

<sup>35</sup> Юсупов Ш.Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003– Б.118.

<sup>36</sup> Каримбек Камий.Дилни обод айлангиз. Танланган асарлар. (Нашрга тайёрловчи Тўлабоев О) – Т.: Маънавият, 1998. – Б.160.

<sup>37</sup> Қаранг: Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Бешинчи том.– Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б.92-93.

Abdulfattohxon nomiga 6 ta, Mirhidoyat qori – Mullo Hidoyat qori nomiga 12 ta, Mullo No‘monjon – No‘monxon – Hoji No‘monxon nomiga 4 ta, Inoyat qori nomiga 2 ta, Mullo Mahkamxon nomiga 2 ta, Mullo Ahmadjon nomiga 3 ta muvashshah-g‘azal yozilgan.

Mulla Qo‘shoq Miskin ijodida ham g‘azal janridagi muvashshahlar ko‘p uchraydi. Shoirning Yusufxon, Xolmuhammadxon, Muhammadjon, Ismoil maxzum, Ziyovuddinxon, Alixon, Omilxon singari zamondoshlari nomiga bitilgan muvashshah-g‘azallari ma‘lum. Namlari zikr etilgan kishilar ismiga Miskin bilan bir davrda yashab ijod qilgan yana qator shoirlar ham muvashshah bog‘laganlar. Kamiyning Xolmuhammadxon, Alixon, Mirzo Shoshiyning Alixon, Xislatning Yusufxon, Alixon kabilarning nomlariga muvashshah bog‘laganlaridan ismlari muvashshah qilingan kishilarning Miskin va uning ijodiy davrasi uchun yaqin shaxslar bo‘lgani haqidagi xulosaga olib keladi<sup>38</sup>. Sayyid Orifxo‘ja o‘g‘li Xislat ijodida ham 17 g‘azal va 2 muxammas muvashshah qilingan. Hamdamxon nomiga 2 ta, Asqarxon nomiga 2 ta, Umarxon nomiga 2 ta, Sul-tonxon nomiga 2 ta g‘azali muvashshah qilinganidan shoirning mazkur shaxslar bilan aloqasi yaqin bo‘lganini payqash mumkin.

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida an‘anaga aylangan muvashshahchilik Xorazm adabiy muhitida shoh va shoir Feruz rahnamoligida rivojlandi. Ma‘lumki, mazkur adabiy muhit vakillari Sharq adabiyoti durdonalaridan ma‘naviy oziq olgan, an‘analar bag‘rida shakllangan, rivojlanib kamol topgan edi. Ular muvashshahchilikda ham sermahsul ijod qilib, adabiyotimiz xazinasini o‘ziga xos muvashshah asarlar bilan boyitdilar. Feruz, Komil, Rojiiy Xorazmiy singari shoirlar yaratgan muvashshahlar faqatgina shakl hodisasi bo‘lmay, balki badiiy yetukligi bilan e‘tiborni tortadi. Muhammad Rahimxon – Feruz muvashshah-g‘azallarining betakror namunalarini yaratgan. Shoir muvashshah-g‘azallarida Rajabjon, Yusufjon, Yunusjon, Fanojon, Qadamjon, Otajon kabi zamondoshlari nomlarini uchratamiz. Bu davrning peshqadam ijodkorlaridan Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy ijodida 18 ta muvashshah-g‘azal o‘rin olgan bo‘lib, ular Niyozmuhammadjon, Muhammad Imonjon, Oysajon, Najmiddin, Xoljon, Pahlavonjon, Tolibjon, Otajon, Avazjon, Muhammadjon, Nosirjon, Yoqubjon, Muhammadiyorjon kabi yaqinlari nomiga bitilgan. Shuningdek, shoirning Alisher Navoiy g‘azaliga yozgan bir muxammasi ham muvashshah bo‘lib, Sharifjon nomiga bog‘langan. Komil Xorazmiy ijodida ham Abdurahimjon, Abdullohjon, Otajon, Muhammad Imonjon kabi shaxslar nomiga bitilgan muvashshah-g‘azallar mavjud.

XIX asr oxiri XX boshlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotidagi muvashshahchilik nafaqat, Qo‘qon, Toshkent, Xorazm adabiy muhit vakillari, balki Turkistonning barcha hududlarida ijod qilgan shoirlar ijodiga xos edi. Xususan, kattaqo‘rg‘onlik shoir Muhammad Rasul Nojiiy-Xoib ijodida Xaliljon nomiga, sayramlik shoir Yusuf Saryomiy ijodida Usmonjon nomiga, o‘shlik shoir Amoniy Araboniy ijodida Mulla Abdulla nomiga bitilgan muvashshahlarning mavjudligi bu she‘riy shaklning ijod ahli orasida naqadar ommalashganidan dalolat

<sup>38</sup> Қаранг.Нуриддинов Ш.Б. Мулла Қўшоқ Мискин ҳаёти ва унинг адабий мероси. – Фил.фан.ном.дисс. –Т., 2011. – Б.79.

beradi. Samarqandlik mashhur shoir Sayyid Ahmad Vasliyning ham muvashshah yozganligi haqida “Tazkirai Qayyumiy”da o‘qiyimiz: “... muhtaram shoir bu kitobda qirq dona g‘azalni muvashshah etmishdurlarki... (shunga) hayron bo‘lmoqdamiz”<sup>39</sup>. Shoir Vasliyning 40 ta she‘ri muvashshah ekanligiga tazkira muallifining taajjublanishi, bizningcha, XX asr boshlaridagi muvashshahchilikka va shu orqali ishqiy mavzudagi she‘rlarga bo‘lgan salbiy qarashlar natijasi bo‘lsa kerak. Kattaqo‘rg‘onlik shoir Ochildimurod Miriy ham muvashshahchilikda sermahsul ijod qilgan shoirlardan hisoblanadi. Uning Jaloljon, Jamoljon, Komiljon, G‘ulomjon, To‘xtamishjon, Jaloliddin, Dilmurodjon kabi zamondoshlari nomiga yozgan muvashshah-g‘azallari hamda Jamoljon, Jaloliddin, Komiljon nomlariga yozgan muxammas-muvashshahlari mavjud.

Xullas, muvashshahlar ma‘lum maqsad bilan yaratilgani, ularda nomlari keltirilgan shaxslar ijodkorning yaqin do‘stlari, adabiy hamkorlari bo‘lganini ta’kidlash kerak. Bu asarlarning yaratilish tarixini o‘rganish milliy adabiyotimiz tarixining qorong‘u jihatlarini oydinlashtirish jihatidan ilmiy qimmatga molikdir.

